

## O. GENRI VA O'. HOSHIMOV HIKOYALARIDA KUTILMAGANLIK EFFEKTI VA YECHIM

O'zDJTU toyanch doktoranti  
Avezov Elbek  
Tel 99 853 89 90

**Калит сўзлар:** диолектик, аналитик, туш, рухият, рухий босим, психологизм, психоанализ.

Hikoyalardagi kutilmagan yakunlar ham goh quvonchli hodisalar bilan, goh iztirobli va fojiali voqealar bilan tugaydi. O.Genrining “So'nggi yaproq” hikoyasidek achinarli hodisalar tasviri aksini topgan hikoyalardan O'tkir Hoshimovning “Urushning so'nggi qurboni” asaridir. Urush asorati tufayli jabrlangan oilalardan biri Umri xolaning oilasi edi. Hikoyadagi har bir qahramon tashvishi o'quvchi qalbini larzaga soladi. Mushtipar ona dardmand o'g'li Shone'matga sut topib beraman deb o'zini o'tga-cho'qqa uradi. Katta o'g'li Shoikromning hovlisidagi qulupnaydan qo'y sutiga almashtirib, Shone'matga ichirish uchun o'g'irlamoqchi bo'ladi. Hikoyada asar qahramonlarining o'zaro munosabati, ruhiyati alohida ahamiyat kasb etadi. “Rangi uniqqan chit ko'ylak” kiyib olgan ma'suma ona, “hayotning beshafqat kunlaridan charchagan Shoikrom, dardmand bo'lib, o'limini kutib yotuvchi Shone'mat, ro'zg'orning yetishmovchiligidan zada bo'lgan Xadicha obrazlari hayotiy haqiqatga sodiqlik mezoni asosida gavdalantirilgan. Adib qahramonlarining o'y-kechinmalari orqali o'sha davrning ayanchli manzaralarini ifodalaydi. Qulupnay o'g'risini tutmoqchi bo'lib, hovliga tokli simni ulagan Shoikrom natijada o'z onasining qotiliga aylanishi yetti uqlab tushiga kirmagan edi. Hikoyaning ayni kutilmagan yakuni ham qulupnay o'g'irlagan kimsa kim ekanligi aniq bo'lganidadir. Dahshatl faryoddan cho'chib tushgan Shoikrom sapchib o'rnidan turib qulipnay pushtasida muk tushib yotgan odamga ko'zi tushadi va qotillik qilganini payqab, hovliga yuguradi. Ne ko'z bilan ko'rsinki u o'z onasi Umri xola edi. “— *Oyi! Oyijon! Umri xola bir qo'li bilan uniqqan chit ko'ylagining etagini mahkam changallab olgan, etak ichida ikki hovuch pishgan-pishmagan aralash qulupnaylar ko'rinib turar, boshqa qo'li bilan esa ilondek simni ushlab turardi. Shoikrom uning qulupnay qizili yuqqan, yorilib ketgan barmoqlarini, bo'rtgan tomirlarini aniq ko'rdi*”<sup>1</sup>. Hikoyada Shoikromning ichki olamida ro'y bergen po'rtana shiddatli tus oladi. Qo'yan tuzog'iga onasi tushganiga chiday olmasdan faryod urayotgan Shoikromning ruhiy holati kitobxon ko'z oldida gavdalaniadi. Zo'rg'a emaklab chiqqan ukasiga qarata aytgan so'zları va unga Shone'matning javobi ham bevaqt ketgan mushtipar onaga nisbatan achinish hissini uyg'otadi: “— *Nima qilib qo'ydim, ukam! — dedi Shoikrom yana balchiqqa belangan kafti bilan yuzini changallab. Keyin tag'in onasining ustiga o'zini tashladi. U onasini ko'tarishga urinar, ammo onasining ikki buklangan gavdasi negadir hech tiklanmas edi. — Sut*

<sup>1</sup> Ҳошимов Ў. Ўзбеклар. –Т.: F.Фулом, 2011. –Б.17.

*ichmay zahar ichsam bo‘lmasmidi, – dedi Shone’mat ovozi titrab*”<sup>2</sup>. Aynan shu pallada Shoikrom onasining nima sababdan bu ishga qo‘l urganini anglab yetdi. Bir necha soniya ukasiga tikilib turdi-da, boshqa hech nima uning qulog‘iga kirmadi. Muallif hikoyada bunday og‘ir holatni chuqur psixologizm asosida ifodalaydi. “– *Urush tamom bo‘pti, eshitdingizmi?*” – *Umri xolani dafn qilib qaytishyotganida odamlarning suhbati Shoikromning qulog‘iga chalinadi*. Aynan shu jumlada yozuvchining yorug‘ kunlar kelishiga qilgan umidi aks etgan.

O. Genri hikoyalarida kutilmagan yechim yoki kutilmagan yakun ba’zan ikki marta keladi bu holatda ikkinchi yechim birinchisini to‘ldirib keladi yoki buning aksi bo‘lib, birinchi yechimni rad etish hollari ham uchrashi mumkin. Aynan birinchi voqeaga xulosa qilib, kitobxонни ishontirib, muallif voqeaga ikkinchi yakuniy yechimni beradi. Agar birinchi yechimni o‘qib turib, taxmin qilayotgan o‘quvchi ikkinchi yechimni qanday bo‘lishiga qiziqadi. Bu esa O. Genriniing hikoyalariga yanada joziba bag‘ishlaydi. Xuddi shunday holatni uning “Mo‘jizaviy kulchalar” nomli hikoyasida ham kuzatish mumkin. Kichik bir do‘konning egasi bo‘lgan Marta Michem xonim o‘z baxtini topish ilinjida do‘koniga tez-tez kirib, eski kulchalar xarid qiladigan rassomga mehribonchilik ko‘rsatmoqchi bo‘ladi. Non sotib olishga puli yetmasligini taxmin qilib, kulchalari orasiga saryog‘ surib qo‘yib, minnatdorchilik evaziga rassomdan do‘q-po‘pisa va haqarat eshitganida hayratdan qotib qoladi. Hikoyaning tuguni ham voqeaning aynan shu joyida tasvirlanadi. “*You haf shpoilt me,*” he cried, his blue eyes blazing behind his spectacles. “*I vill tell you. You vas von meddlingsome old cat*”<sup>3</sup>, <sup>4</sup>. Bunday haqaratni eshitgan Marta xonim boshidan muzdek suv quyilgandek jim bo‘lib qoladi. Voqeaning yechimi qanday kecharkin deb turli taxminlar qilayotgan o‘quvchi uchun rassomning do‘sti bergen izohlar ayni muddao bo‘ladi. O‘rtog‘i u bilan birga qurilish idorasida ishlashi, uch oy bosh ko‘tarmay bir bino loyihasining chizmasi ustida ishlayotganini aytib beradi. Chizma avval qalam bilan chizilishi, so‘ngra qotgan non bilan o‘chirilishini aytadi. “*Blumberger’s been buying the bread here. Well, to-day – well, you know, ma’am, that butter isn’t well, Blumberger’s plan isn’t good for anything now except to cut up into railroad sandwiches*”<sup>5</sup>, <sup>6</sup>. Bu gaplardan so‘ng Marta xonim nima ish qilib qo‘yanini tushunib yetadi. Hikoya bu bilan tugamaydi, balki muallif endi Marta xonimning ahvoli nima kecharkin? – degan kitobxonga alohida javob beradi: “*Miss Martha went into the back room. She took off the blue-dotted silk waist and put on the old brown serge she used to wear. Then she poured the quince seed and borax mixture out of the window into the ash can*”<sup>7</sup>, <sup>8</sup>. Marta xonimning orzulari chippakka

<sup>2</sup> O’sha manba. –B.17.

<sup>3</sup> Henry O. The complete works. –New York: Garden city, V–2, 1953. –P.827.

<sup>4</sup> “Men hammasini, hammasini aytaman! Siz surbet, qari mushuksiz!” //Генри О. Шафтоли ва пўртакол. –Т.: Ўзбекистон, 2018. –Б.67.

<sup>5</sup> Henry O. The complete works. –New York: Garden city, V–2, 1953. –P.827.

<sup>6</sup> “Blyumberger nonni sizdan sotib olardi. Bugun esa... Bilasizmi, xonim, sizning sariyog‘ingiz... u, bilasizmi... Xullas, Blyumbergerning chizmasi endi faqat buterbrodga yaraydi”. //Генри О. Шафтоли ва пўртакол. –Т.: Ўзбекистон, 2018. –Б.68.

<sup>7</sup> Henry O. The complete works. –New York: Garden city, V–2, 1953. –P.827.

chiqqanini, yaxshilik qilmoqchi bo‘lib, aksincha, yomonlik qilib qo‘yganini anglagan kitobxonning unga nisbatan achinishi tabiiy. Hikoyadagi kutilmagan yakun chizmadagi nonni o‘chirg‘ich uchun ishlatilishga olinishi sababi bo‘lsa, muallifning Marta xonimning keyingi holatini tasvirlashi esa voqeaga yanada estetik joziba beradi. Muallif Marta xonimning ruhiyatiga keskin ta’sir ko‘rsatgan voqeа uning tuyg‘ularini chilparchin qilganini ta’kidlamoqchi bo‘lgan. O. Genri hikoyalarining ayol personajlari o‘z orzulari uchun kurashgan, halol mehnat qilib, yaxshi hayot uchun intilgan ayollardir. Bu holatni O‘tkir Hoshimov hikoyalarida ham kuzatish mumkin. Ularda ayol taqdiri va qismati, o‘tmish va bugungi kundagi ayollar duch kelayotgan muammolar keljakka ishonch ruhi bilan bevosita bog‘liqlikda tasvirlanmoqda. Yozuvchining “Umr savdosi” nomli hikoyasi aynan ana shunday mavzuda yaratilgan asarlardandir. Bu hikoyada barcha o‘zbek qizlaridek iffatl, hayoli, orzulari ummon bo‘lgan asar qahramoni Xurshida ertaklardagi shahzodadek uning hayotiga kirib kelgan Anvarga ishonib, aldangan ayol obrazidir. Tug‘ilgan kunida tanishib, o‘zini aspirantman deb tanishtirgan Anvar aslida suratkash ekani, shu tariqa juda ko‘p qizlarni aldab, laqqa tushirgani asar so‘ngida oshkor bo‘ladi. Anvar Xurshidani aldab, komandirovkaga ketdim, deb chiqib ketganidan so‘ng bola yetaklab kelgan ayol o‘zini Anvarning xotini ekanini aytganida, Xurshida o‘zini qo‘yarga joy topa olmadi. Eng achinarlisi, u ayoldan tashqari yana boshqa xotini bo‘lganini eshitgach, chidab turolmadi. Sal bo‘lsa-da, qilmishidan uyalar degan niyatda Anvarning o‘zidan so‘raganida, tap tortmasdan bergen javobi kitobxonning Anvarga nisbatan nafratini qo‘zg‘aydi. “— Nega meni aldadingiz? — dedi Xurshida alamdan to‘lg‘anib. — Qiziq ekansiz, to‘yni tezlashtiring, degan menmi, sizmi? Xurshida alam ichida uni tarsakilab yubordi. Anvar bir rangi o‘chdi-yu, indamadi. — Bo ‘ldimi? — dedi kulishga harakat qilib. — Alamingizdan chiqdingizmi endi? Xurshida bu odam bilan o‘rtalarida kattakon jarlik paydo bo‘lganini his qildi. Bu jarlik ikkovlarini ikki sohilga uloqtirib tashladi. Kim bilsin, balki ilgari ham jarlik bo‘lgandir-u Xurshida ko‘rlik qilib, narigi sohilga qadam bosgandir”<sup>9</sup>. Hikoyaning dastlabki yechimi shu jumlalar bilan tugaydi. Lekin muallif bu bilan cheklanib qolmaydi. Xurshidaning onasi qizi uchun adashgani, odamlarga ishonchi qolmaganini aytib, alam bilan yozg‘iradi. Uning onasi Qumri xolaning ovsini bilan suhbati hikoyaga yakun yasaydi. “— To ‘lqinjonning to‘yi yaqinlashib qoldi, ovsinjon! Shunaqa-yu, ko‘nglim g‘ashroq. Kelinning akasi icharkan. Otasiniyam og‘zi shaloqroq, deyishadi. — Sinang, o‘rgilay, obdon sinang. Qush uyasida ko‘rganini qiladi. Keyin kuyib, alangasiga isinib o‘tirmang, ovsinposhsha!”<sup>10</sup> Muallif shu tariqa hikoyaga yakun yasaydi. Hikoya so‘ngida Qumri xola bir marta aldanganiga insonlarga nisbatan ishonchi qolmagan uchun ham o‘g‘lining turmush qurishida hali ham gumonda ekani yozuvchi tomonidan ta’kidlanadi.

Aksariyat kitobxonlar asar yakuni ular o‘ylagandek bo‘lmaganidan

<sup>8</sup>“Marta xonim do‘kon ortidagi xonaga kirib ketdi. U yerda xonim kichik xol-xol havorang gulli shoyi ko‘ylagini yechib, avvalgi jigarrang paxta ko‘ylagini kiydi. So‘ng behi urug‘i qo‘shilgan surtmasini olib, uni deraza ortidagi axlat qutisiga ag‘dardi”. //Генри О. Шафтоли ва пўртхахол. — Т.: Ўзбекистон, 2018. —Б.68.

<sup>9</sup> Ҳошимов Ў. Ҳикоялар. — Т.: Ўқитувчи, 2017. —Б.81.

<sup>10</sup> Ҳошимов Ў. Ҳикоялар. — Т.: Ўқитувчи, 2017. —Б.81.

hayratlanishadi. To‘satdan nimadir sodir bo‘lishi, kutilmagan yakun ko‘p o‘quvchilarni asarga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi. O. Genri va O‘. Hoshimov hikoyalarida ham aynan shunday holatni kuzatamiz. Ularning hikoyalarida qahramonlarning o‘ylari, fikrlari va harakatlari mantiqiy izchillikda tasvirlanadi va kutilmagan yakun bilan tugallanadi.

#### **Foydalangan adabiyotlar**

1. Henry O. The complete works. –New York: Garden city, V–1, 1953. – 1700 p.
  2. Генри О. Шафтоли ва пўртахол. –Т.: Ўзбекистон, 2018. – 104 б.
  3. Генри О. Ишбилармон кишилар. – Т.: Янги аср авлоди, 2019. – 260 б.
  4. Ҳошимов Ў. Ҳикоялар. Т.: Ўқитувчи, 2017.
  5. Ҳошимов Ў. Ҳажвий ҳикоялар/ Телпак. –Т.: Ўқитувчи, 2018.
- Ҳошимов Ў. Севги қиссалари: ҳикоялар ва қиссалар. – Тошкент, 2013. – 448 б.